



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY FAROQIYOT VA KAMDAĞ'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI


ASOSIY TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BO'YICHA DUNYO MAMLAKATLARIDAGI ISHLAB CHIQRISH PROGNOZLARI VA NARXLAR O'ZGARISHI DINAMIKASI SHARHI

Toshkent-2022

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha dunyo mamlakatlaridagi ishlab chiqarish prognozlari va narxlar o'zgarishi dinamikasi sharhi

Bug'doy

BMTning *Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)*ning fevral oyida e'lon qilingan hisobotiga ko'ra, **2021-2022-yilgi** mavsumda dunyo bo'yicha global bug'doy ishlab chiqarish istiqbol hajmlari **775,6 mln tonnani** tashkil etib, o'tgan yil mavsumiga nisbatan **0,6 foizga** pasaygan.



2021-2022-yilgi mavsumda bug'doyning global iste'mol prognozi **775,8 mln tonna** baholanib, bu **2020-2021-yilgi** ko'rsatkichga qaraganda mos ravishda **1,3 foizga** yuqori hisoblanadi.

2021-2022-yilgi mavsumda bug'doy zaxiralari yil boshidagi prognozga nisbatan **0,4 foizga** tushishi va **287,5 mln tonnani** tashkil etishi kutilmoqda.

“**APK-INFORM**” MDH mamlakatlari uchun haftalik axborot-tahliliy jurnaliga asosan, oktabr oyidan bug'doy narxlari o'zgarishi dinamikasida o'sish kuzatildi va bugungi kunda dunyo birjalarida bug'doyning bir tonnasi **309-339 AQSH dollari** darajasida tashkil etmoqda.

AQSHning *Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA)*ning fevral oyidagi hisobotida **2021-2022-yilgi** mavsumda dunyo bug'doy ishlab chiqarish prognozi **776,4 mln tonnani** tashkil qilmoqda.

11-fevral kuni Rossiya *Qishloq xo'jaligi vazirligi* asosiy donli ekinlar uchun eksport bojlari stavkalarini haftalik yangilashni o'tkazganidan so'ng, ular ikki hafta oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan pasaytirildi.

Bunga ko'ra, bug'doyning bir tonnasi uchun eksport boji stavkasi **92,8 dollar** darajasida belgilanib, **1,1 dollar** yoki **1,2 foizga** pasaytirildi. Ushbu tuzatish bir tonna don uchun indikativ narxning **334,2 dollardan 332,7 dollargacha** pasayishi bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. O'tgan oy davomida indikativ narxlar va boj stavkalarining o'zgarishi dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.


Sana	Indikativ narxi (AQSH doll.)	Eksport boji stavkasi (AQSH doll.)
11.02.2022	332,7	92,8
04.02.2022	333,2	93,2
28.01.2022	334,2	93,9
21.01.2022	336,9	95,8

Qozog'iston Respublikasi **Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi** Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning **1-fevral** holatiga ko'ra mamlakatda g'alla va dukkakli ekinlar zaxirasi **10,05 mln tonna**ni tashkil etdi.

Bugungi kunda Qozog'istonning **Sariag'ash temiryo'l stansiyasida (DAP)** **1 tonna** 3-sinf bug'doy uchun to'lov shakli va yetkazib berish muddatiga qarab **300-310 AQSH dollari** oralig'ida shakllanib, narxlar barqarorligi kuzatilmoqda.

O'simlik yog'i

Davom etayotgan **COVID-19** pandemiyasi bilan bog'liq daromadlar qisqarishi o'simlik yog'larga bo'lgan global talabni og'irlashtirayotgan bo'lsada, **2021–2022-yilda** dunyo iste'molining **2020–2021-yilga** nisbatan o'sishi prognoz qilinmoqda.



BMTning FAO tashkilotining yarim yillik *Global oziq-ovqat bozori* hisobotidagi ushbu keltirilgan hosil prognozlaridan kelib chiqib, o'simlik yog'i ishlab chiqarish hajmi **213,2 mln tonnaga** yetishi kutilmoqda.

AQSHning Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA)ning joriy yil fevral oyidagi hisobotiga ko'ra dunyo bo'yicha o'simlik yog'i ishlab chiqarish hajmi **213,2 mln tonnani** (o'tgan yilga nisbatan **6,79 mln tonnaga** yoki **3,3 foizga** ko'p) tashkil etishi kutilmoqda. Bundan **22,06 mln tonnasini** (o'tgan yilga nisbatan **2,97 mln tonnaga** yoki **15,6 foizga** ko'p) yoki **10,3 foizini** kungaboqar yog'i tashkil qiladi.

O'simlik yog'ining xalqaro savdosi **2021–2022-yillarda** o'tgan mavsumga qaraganda **3,1 foizga** yoki **172,03 mln tonnagacha** (savdo qilinadigan moyli urug'lar tarkibidagi yog'ni hisobga olgan holda) o'sishi kutilmoqda.

Importda o'sish sur'atlari asosan *Hindiston* va *Yevropa Ittifoqi* mamlakatlarida o'sib borayotgan ichki iste'mol talabini qondirish hisobiga kuzatilmoqda.

Indoneziya va *Malayziya* tomonidan o'simlik yog'larni eksport hajmi kengayib bormoqda, bu ikkala mamlakatda ta'minotning ortishi bilan izohlanadi.


Shuningdek, xalqaro birja savdolarida o'simlik yog'i narxi o'tgan yilning fevral oyidagi **1295 dollar**dan, joriy yilning mos davridagi **1420 dollar**gacha yoki o'rtacha **9,6 foiz**ga oshgan.

COVID-19 pandemiyasi o'simlik yog'iga bo'lgan global talabni oshirganidan so'ng, **2020-yil iyun** oyidan boshlab o'simlik yog'i narx indekslari keskin o'sdi. **2022-yilning fevral** oyiga kelib narxlar indeksi **2021-yilning** mos davriga nisbatan **1,1 baravar** yuqori natijani qayd etdi.

"**APK-INFORM**" haftalik axborot-tahliliy jurnaliga asosan, dunyo bozori konyunkturasida joriy yilning fevral oyida kungaboqar yog'i narxlari o'zgarishi dinamikasida barqarorlik kuzatilmoqda. Kungaboqar yog'ining bir tonnasi (**FOB**) **1395-1460 AQSH dollari** darajasini qayd etmoqda.

Go'sht

2021-yilda jahon miqyosida go'sht ishlab chiqarish **346 mln tonnani** tashkil qilib, **2,2 foizga** o'sishi prognoz qilinmoqda. Bu birinchi navbatda *Braziliya, Vyetnam, AQSH va Xitoy* davlatlarida go'sht ishlab chiqarishning keskin o'sishi bilan bog'liq.



AQSHning *Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA)* ma'lumotlariga ko'ra, mol go'shti ishlab chiqarish hajmi **2021-2022-yil** mavsumi uchun **58,1 mln tonnani** tashkil qilib, asosiy ishlab chiqarish ulushi AQSH (**12,3 mln tonna**), *Braziliya (9,7 mln tonna)*, *Xitoy (7,0 mln tonna)* va *Yevropa Ittifoqi (6,8 mln tonna)* zimmasiga to'g'ri kelmoqda. Dunyo bo'yicha parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi esa **100,9 mln tonnani** tashkil qiladi.

2021-yil uchun mol go'shti importining yillik prognozi o'tgan oydan **18,4 ming tonnaga**, **1,5 mln tonnagacha** oshirildi. **2022-yilda** mol go'shti importi prognozi o'tgan oydan **1,5 mln tonnagacha** o'zgardi.


2021 va 2022-yillar uchun mol go'shti eksporti yillik prognozlari o'tgan oyga nisbatan mos ravishda **1,5 va 1,4 mln tonnagacha** o'zgardi.

Bunda asosan *Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH), Buyuk Britaniya*da import hajmlari kamayishi va *Shimoliy Irlandiya (Buyuk Britaniya)*,

Janubiy Afrika va Rossiya, xususan, Filippin, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va Birlashgan Arab Amirliklarida esa import hajmlari o'sishi kutilmoqda.


Xitoyda, garchi **2021-yilda** umumiy import hajmi **11 mln tonnagacha** qolishi kutilayotgan bo'lsa-da, o'tgan yilgi import hajmidan **250 000 tonna** yoki o'tgan yilga nisbatan **2,2 foizga** kamroqni tashkil qilishi mumkin.

AQSHda ichki ta'minotning o'sishi importga bo'lgan talabni kamaytirishi mumkin va *Buyuk Britaniya* sanitariya va fitosanitariya tekshiruvlari hamda nazoratlarini keyinga qoldirgani hamda **2021-yilda** go'sht importini kamaytirganiga qaramay, *Yevropa Ittifoqi* bilan savdo qilishda logistik muammolarga duch kelmoqda.



Shakar

BMTning *Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)* dunyodagi shakar ishlab chiqarish biroz o'sishini kutilayotganini ma'lum qilmoqda. Hozirgi **179,4 mln tonna** shakar ishlab chiqarish prognozi yalpi shakar iste'moli prognozidan biroz ko'proqni tashkil qilmoqda, natijada global ravishda **3,5 mln tonnani** tashkil qilmoqda.




AQSHning *Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA)* tashkilotining yarim yillik hisobotidagi prognozlarga ko'ra, shakar ishlab chiqarish hajmi **181,1 mln tonnani** tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan **0,9 mln tonnaga** yoki **0,5 foizga** ko'p. Dunyo bo'yicha iste'mol hajmlari **174,5 mln tonnaga** (o'tgan yilga nisbatan **3,4 mln tonnaga** yoki **2 foizga** ko'p) yetib, asosiy iste'molchi mamlakatlar *Hindiston (28,5 mln tonna)*, *Yevropa Ittifoqi (16,9 mln tonna)*, *Xitoy (15,8 mln tonna)*, *AQSH (11,0 mln tonna)* va *Braziliya (10,0 mln tonna)* bo'lishi kutilmoqda.

2020-2021-yillarda jahon shakar savdosi prognozi **63,1 mln tonnani** tashkil etmoqda, bu **2019-2020-yilgi** savdo hajmidan bir oz pastroq. Qisqarish asosiy eksport qiluvchi *Tailandda* kutilayotgan eksport qilinadigan mahsulotlarning qisqarishi, *Rossiya* va boshqa Yevropa davlatlari tomonidan eksport hajmining pasayishi bilan bog'liq. *Indoneziyada* import ham o'tgan yilga nisbatan biroz pasayishi kutilmoqda, ammo ichimliklar va oziq-ovqat

mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga bog'liq holda talab kuchayishi kutilmoqda.

BMTning *Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)* ma'lumotlariga ko'ra, narxlarning ko'tarilishiga asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish pasayishi sabab bo'ldi.

AQSH dollarining shakar eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar valyutalariga nisbatan zaiflashishi shakar narxlariga yanada yuqori bosim o'tkazmoqda.



Shu o'rinda, ***Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi*** tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ichki va tashqi bozorlarda konyunktura o'zgarishlari doimiy tahlil qilinib, mavjud xavflarni aniqlash va ularning ichki iste'mol bozoriga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha muntazam chora-tadbirlar amalga oshirib borilmoqda.